

## O‘zbek Va Xitoy Tillarida Taqlid So‘zlarning Chog‘ishtirma Tahlili

**Nabiyev Obidjon Abdullo o‘g‘li**

Ipak y‘oli” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti“Yozma va og‘zaki tarjima  
tadqiqotlari”kafedrasida katta o‘qituvchisi Samarqand O‘zbekiston,  
nabiyevobidjon@univ-silkdoad.uz

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada xitoy va o‘zbek tillarida taqlid so‘zlarning fonetik, semantik va grammatik xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Bu so‘zlarning o‘zaro tahlili nafaqat tilshunoslik uchun, balki adabiyotshunoslik, tarjima nazariyasi, madaniyatlararo kommunikatsiya hamda til o‘rgatish metodikasida muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada taqlid so‘zlarning asosiy turlari, ularga misollar va matndagi ifodalanish uslublari yoritiladi.

**Kalit so‘zlar:** taqlid so‘zlar, tovushga taqlid, harakat va holatga taqlid, 拟声词, tarjima

Har bir xalqning tili — bu millat tafakkuri, madaniyati va tarixining yorqin aksidir. Tilning leksik boyligida muhim o‘rin egallovchi unsurlardan biri bu — taqlid so‘zlar. Taqlid so‘zlar — atrof-muhitdagi tovushlar, holatlar yoki harakatlarning tovushli ifodasi bo‘lib, ular bevosita sezgi, tasvir va hissiyot bilan bog‘liq. Ular ko‘pincha ovozlarni eslatadi yoki hissiy ta‘sirni kuchaytirish maqsadida ishlatiladi. Narsalarning nomlanishida boshqa so‘zlarga tabiatan tovushga taqlid so‘zlar mohiyatan nomlash sababini aniqroq ilg‘ash imkoniyatini beradi. Qizig‘i shundaki bunday so‘zlar mutloqo bir-biriga yaqin bo‘lmagan tillarda muayyan mushtaraklikda ikkiga bo‘linishi mumkin. Buning asosiy sabablaridan biri tovushga taqlid so‘zlar eshitalish asosida hosil bo‘lishi bilan bog‘liq fikr dalili sifatida xitoy va o‘zbek tillaridagi taqlid so‘zlarga ana shunday mushtarak va farqli jihatlari haqida mulohaza yurushni lozim topdik. Ushbu maqolada xitoy va o‘zbek tillaridagi taqlid so‘zlarning fonetik, semantik va grammatik xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinadi.

Taqlid so‘zlarning mohiyati va turlari haqida to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, o‘zbek tilida taqlid so‘zlar asosan ikki turga bo‘linadi:

1. Tovushga taqlid (masalan, g‘ir-g‘ir, shuvilladi, vovilladi)
2. Harakat yoki holatga taqlid (masalan, yalt-yalt, mil-mil, tip-tikka)

Xitoy tilida esa taqlid so‘zlar “拟声词 (nǐshēngcí)” deb ataladi va ularning ishlatilish doirasi juda keng. Ular nafaqat tabiiy tovushlarni (masalan, 喵喵 māomāo – mushukning miyovlashi), balki holat va harakatlarni (masalan, 扑通 pūtōng – nimanidir tushib ketishi) ham ifodalaydi.

-Quyida endi taqlid so‘zlarning fonetik xususiyatlari haqida to‘xtalib o‘tamiz.

O‘zbek tilida taqlid so‘zlar asosan reduplikatsiya (takrorlash) asosida hosil qilinadi: shuv-shuv, g‘ir-g‘ir, chal-chal. Undoshlar va unli tovushlar almashinuvi orqali tasvir kuchaytiriladi. Xitoy tilida esa fonetik taqlidda tonlar muhim o‘rin tutadi. Masalan, 咕噜咕噜 (gūlūgūlū) — biror narsaning dumalashi yoki ichkaridan ovoz chiqishi. Shu bilan birga bo‘g‘inlar soni (ko‘p hollarda 2 yoki 4 tani tashkil etishi mumkin) qat‘iy saqlanadi va muayyan musiqiylikni beradi.

➤ Grammatik xususiyatlar

O‘zbek tilida taqlid so‘zlar ko‘pincha fe‘lga aylanadi (shuvilladi, g‘uvillamoq) yoki sifatlash xususiyatiga ega bo‘ladi (mil-mil yondi). Xitoy tilida esa bu so‘zlar ko‘pincha fe‘l yoki holatga ko‘makchi so‘z sifatida xizmat qiladi, ammo ular grammatik jihatdan mustaqil so‘zlar hisoblanmaydi. Ko‘pincha ular gapda holatni kuchaytiruvchi qo‘shimcha element sifatida keladi. O‘zbek va xitoy tilidagi taqlid so‘zlarning grammatik o‘ziga xos o‘xshash va farqli tomonlari mavjud. O‘xshash tomonlari shuki, o‘zbek va xitoy tilida taqlid so‘zlar birdek, asosan hol va aniqlovchi, ba‘zan esa kesim, otlashgan holatda ega, tushum, jo‘nalish kelishigi qo‘shimchalarini qabul qilganda to‘ldiruvchi vazifalarini bajarib keladi. Ular tuzulishiga ko‘ra ham o‘xshash bo‘lib, ikkala tilda ham sodda va qo‘shma taqlid so‘zlar mavjud. Farqli tomonlari esa shuki o‘zbek tilida ikkala bo‘g‘ini ham bir xil tovush bilan boshlanib tugaydigan taqlid so‘zlar kuzatilmaydi. Bundan ko‘rinib turibdiki insonlar o‘rtasida muloqot jarayoni bor ekan, ayrim jonivorlar yoki hodisalarni tushuntirishda taqlid so‘zlarga ehtiyoj sezadi. Taqlid so‘zlar har bir til yoki millatda mavjud bo‘lib, ular turli tillarda o‘xshash bo‘lishi mumkin. Chunki hamma joyda jonivorlar bir xil tovush chiqaradi. O‘zbek va xitoy tillarida ayrim taqlid so‘zlar qisman mos kelishi mumkin. Lekin o‘zbek adabiy tili tarkibidagi taqlid so‘zlar leksik-grammatik xususiyatiga ko‘ra tovushga taqlidiy tushuncha va holatda taqlid ma‘nosini ifodalash xususiyatiga ega bo‘lsa, xitoy tilida undov so‘zlar leksik-grammatik xususiyatga ko‘ra taqlidiy tushunchalarni ifodalaydi.

➤ Semantik (ma‘no) xususiyatlar

O‘zbek tilida bir taqlid so‘z turli kontekstlarda turlicha ma‘no kasb etishi mumkin: g‘uvilladi — shamol, transport yoki odam ovozi bo‘lishi mumkin.

Xitoy tilida har bir taqlid so‘z aniq konnotatsiyaga ega: 滴答滴答 (dīdādīdā) – soatning chiqillashi, 啪啪 (pā pā) – shapaloq yoki qarsak ovozi.

Yuqorida taqlid so‘zlarning turli xususiyatlarini ko‘rin chiqdik. Ikkala tilda ham taqlid so‘zlar bolalar adabiyoti, xalq og‘zaki ijodi, she‘riyat va kinematografik matnlarda keng qo‘llaniladi. O‘zbek tilida xalq ertaklari va masallarda, xitoy tilida esa chiziqli romanlar va xalq hikoyalarida bunday so‘zlar ko‘p uchraydi.

Quyida xitoy va o‘zbek tilidagi taqlid so‘zlarning chog‘ishtirish orqali tahlil qilamiz. Xitoy tilidagi taqlid so‘zlarga tabiatda uchraydigan tovushlarga taqlid sifatida qaraladi va ular muayyan holatlarda ma‘nosiz bo‘g‘inlarga kayfiyat yoki ruhiyat tug‘dirish uchun foydalaniladi. Xitoy tilida taqlid so‘zlarning o‘zbek tiliga qisman mos keladiganlari ham mavjud. Masalan: 哈哈 [ha ha] – hahani esa insonlarni kulgusiga taqlidni ifodalaydi. 嘟嘟 [du du] – signal bu so‘z xitoy tilida mashinalarning signal chalinishiga taqlidni ifodalasa, o‘zbek tilida bu “did did” tarzida qo‘llanilishi mumkin. Endi obrazga taqlidni ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, xitoy tilida kuchli hayratlanishga 哇 [wa] – qattiq ajablanish so‘zini keltirishimiz mumkin 哇这个手机真么好啊 [wa zhe ge shou ji zhenme hao a] Va bu telefon buncha zo‘r, 唉 [ài]-afsus 唉差点儿迟到了 [ai cha dianr chi dao le] Ay ozroq kechikdimda.

Xitoy tilidagi taqlid so‘zlarning hammasi ham o‘zbek tiliga mos kelavirmaydi, shuning uchun endi usha jihatini ko‘rib chiqamiz. O‘zbek tilida biz turli hayvonlarni chaqiradigan bo‘lsak, turli taqlid so‘zlardan foydalanamiz. Masalan: Mushuklarni chaqirishimizda “pish-pish” so‘zidan foydalanamiz, xitoy tilida esa ularni ovozigacha o‘xshash qilib 喵呜 [miao wu] myaovu taqlid so‘zi bilan chaqiriladi. Otlarni chaqirishimizda “beh-beh” taqlid so‘zi orqali chaqiradigan bo‘lsak, xitoylar juda farqli ravishda 嘶嘶 [si si] sisi taqlid so‘zidan foydalanadi. Bundan tashqari parrandalarni esa “tu-tu” deb chaqiramiz va bu kabi birqancha misollarni keltirishimiz mumkin. Lekin bu ham xitoy tilida tubdan farq qiladi. Masalan: 咯咯 [ge ge] – qag‘-qag‘ qarg‘alarni ovozigacha taqlid qilishda ishlatadi. 咕咚 [gu nong] – xur-xur so‘zini esa chuchqalarni ovozigacha nisbatan qo‘llaydilar.

Biz yuqorida taqlid soʻzlarning oʻzbek tiliga qisman mos keladigan va mos kelmaydigan jihatlarini koʻrib chiqdik endi esa taqlid soʻzlarning umuman mos kelmaydigan faqatgina tarjima qilish orqaligina tushuna olish mumkin boʻlgan jihatiga toʻxtalamiz. Masalan: 叽叽呱呱 [ji ji gua gua] – suhbatlashayotganda, gʻiybatlashayotgandagi ovoz, 嘟嘟囔囔 [du du nang nang] – oʻziga oʻzi mingʻillash, 叽里咕噜 [ji li gu lu] – odamlar orasida oʻzgalar eshitmaydigan suhbat. 丁零当啷 [ding ling dang lang] – metalga ishlov berish yoki chinnining jaranglashidagi tovushi. 他们两的叽叽呱呱我听不清楚。 [Ta men liang de ji ji gua gua wo ting bu qing chu] – Ular ikkalasining “shivir-shiviri”ni men yaxshi eshita olmadim.

Xulosa qilib aytadigan boʻlsak, xitoy va oʻzbek tillaridagi taqlid soʻzlar, ularning shakl, maʼno va qoʻllanish jihatlaridagi farqlari har ikki tilning fonetik tizimi, grammatik qurilishi va madaniy kontekstidan kelib chiqadi. Oʻzbek tilida bu soʻzlar koʻproq grammatik jihatdan mustaqil, kontekstga qarab keng qamrovli semantik diapazonga ega boʻlsa, xitoy tilida esa aniq fonetik va semantik funktsiyani bajaradi.

Shu bois, taqlid soʻzlarning oʻzaro tahlili nafaqat tilshunoslik uchun, balki tarjima nazariyasi, madaniyatlararo kommunikatsiya hamda til oʻrgatish metodikasida muhim ahamiyat kasb etadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI**

1. Rahmatullayev Sh, “Hozirgi oʻzbek adabiy tili”- Toshkent: Universitet, 2006
2. R.Sayfullayev, B.Mengliyev, G.Boqiyeva, Z.Yunusov, M.Abduzalova“Hozirgi oʻzbek adabiy tili”- Toshkent- 2009
3. 陈辉 发展汉语初级口语 北京语言大学出版社 2015年
4. Liu Xun New Practical Chinese Reader,(English and Chinese Edition新实用汉语课本,2009年